O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MAJIDOV ANVAR SIRAJOVICH

ROSSIYA IMPERIYASI HUKMRONLIGI DAVRIDA SIRDARYO VILOYATINING MA’MURIY VA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI (1867–1917-YILLAR)

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

O‘UK: : 9(c)52.001.(09)378.c52

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Majidov Anvar Sirajovich
Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida Sirdaryo viloyatining ma’muriy va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti (1867–1917-yillar) ……..…… 3

Мажидов Анвар Сиражович
Административная и социально-экономическая жизнь Сырдарьинской области в период правления Российской империи (1867–1917 гг.) 25

Majidov Anvar Sirajovich
Administrative and socio-economic life of the Syrdarya region during the rule of the Russian Empire (1867–1917) ……..... 49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 53

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MAJIDOV ANVAR SIRAJOVICH

ROSSIYA IMPERIYASI HUKMRONLIGI DAVRIDA SIRDARYO VILOYATINING MA’MURIY VA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI (1867–1917-YILLAR)

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi Byulletenida B2025.4PhD/Tar764 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nuuz.uz) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Saidboboyev Zokirjon Abdukarimovich** tarix fanlari nomzodi, professor
Rasmiy opponentlar:	**Musayev Nuriddin Umurzakovich** tarix fanlari doktori, professor
	Usarov Umid Abdumavlyanovich, tarix fanlari bo`yicha falsafa doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174 Toshkent shahar Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi 4-uy. Tel.: +998 71 246 02 24 Faks: +998 71 246 02 24 e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174 Toshkent shahar Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi 4-uy. Tel.: +998 71 246 02 24 Faks: +998 71 246 02 24 e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil “_____” _____ dagi _____ -raqamli reeestr bayonnomasi).

X.E. Yunusova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

J.E. Tog‘ayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, t.f.f.d., dotsent

N.U. Musayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Hozirgi kunda dunyo miqyosida siyosiy va iqtisodiy jihatdan yetakchi mavqega ega bo‘lgan davlatlar o‘rtasidagi raqobatning tobora keskinlashib borishi jahon jamoatchiligini jiddiy tashvishga solmoqda. Asosiy maqsadi bo‘lingan dunyoni qayta bo‘lishga qaratilgan harakatlar asrlar davomida shakllangan bo‘lib, XIX asr o‘rtalarida yetakchi kapitalistik davlatlarning yangi yerlar, xomashyo bazalari va o‘z mollarini sotish uchun bozorlarni egallashga bo‘lgan intilishlari yanada kuchaydi. Mazkur yo‘sindagi harakatlar Rossiya imperiyasini ham yangi harbiy yurishlariga undadi. Bu davrda o‘zbek xonliklarining mintaqada yakka hukmronlikka intilishlari oqibatida vujudga kelgan siyosiy parokandaliklaridan foydalangan Rossiya imperiyasi qisqa muddatda bu hududlarni bosib olib, o‘zining mustamlakachilik manfaatlariga bo‘ysundirdi.

Dunyoning ko‘plab ilmiy-tadqiqot markazlarida Turkistonning Rossiya imperiyasi hukmronligi davridagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tarixini o‘rganish bo‘yicha ilmiy izlanishlar davom etmoqda. Ana shu jihatdan o‘lkada tashkil etilgan dastlabki harbiy-ma’muriy birliklardan biri sanalgan Sirdaryo viloyatining ushbu tarixiy jarayonlarda hududning tabiiy-geografik joylashuviga ko‘ra o‘ziga xos va farqli xususiyatli tomonlarini tadqiq etish ahamiyatli sanaladi. Zero, “Vatanimiz hududida mavjud bo‘lgan har bir davlatchilik tuzumi, har qanday ijtimoiy jarayon – u g‘alaba yoki mag‘lubiyat bo‘ladimi, yuksalish yoki tanazzul bo‘ladimi – barcha-barchasi xalqimiz bosib o‘tgan murakkab tarixiy yo‘lning uzviy va ajralmas qismidir. Shuning uchun ham biz tariximizning barcha bosqichlarini yaxlit holda qabul qilib, har tomonlama chuqur o‘rganishimiz zarur”[1].

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida qadim va shonli o‘tmishimiz, buyuk ajdodlarimizning hayoti va faoliyatini bilish ibrat maktabi vazifasini o‘taydi. Sirdaryo viloyatining Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davridagi ma’muriy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotini Vatanimiz tarixining uzviy qismi sifatida tadqiq etish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri sanaladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “...Sirdaryo viloyati garchi O‘zbekiston tarkibidagi ma’muriy hudud sifatida ancha yosh bo‘lsa-da, bu zaminning necha ming yillik tarixi, madaniyati bor”[2].

Mazkur tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritish sohasi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi hukumatining

[1] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2021. – Б. 288.

[2] Мирзиёев Ш.М. Саҳро бағрида мўъжизалар яратаётган эл (Сирдарё вилояти сайловчилар вакиллари билан учрашувдаги нутқ). “Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз ”. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – Б. 375-376.

ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi 68-son qarorida va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi[3]. Mavzu bo‘yicha tadqiqotlarni o‘rganish jarayonida ularni quyidagi guruhlarga bo‘lish maqsadga muvofiqdir: 1. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davriga oid manbalar. 2. Sovet davrida olib borilgan tadqiqotlar. 3. Mustaqillik davrida amalga oshirilgan izlanishlar. 4.Mavzuga oid xorijda nashr etilgan ishlar.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Jizzax davlat pedagogika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: 1867–1917-yillarda Turkistonda kechgan ma’muriy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni Sirdaryo viloyati misolida yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Sirdaryo viloyatining mustamlaka davriga doir manbalar va amalga oshirilgan tadqiqotlar tarixshunosligini tahlil etish;

Turkiston, Chimkent va Toshkent shaharlari va uning atrof-hududlarining zabt etilishi, Turkiston general-gubernatorligi o‘rnatilishi arafasida kechgan jarayonlarning adabiyotlardagi talqinlariga yangicha yondashish;

1867–1917-yillarda Sirdaryo viloyatining siyosiy-ma’muriy va iqtisodiy ahvolini o‘rganish va uning mustamlakachilik mohiyatini asoslash;

Sirdaryo viloyatiga sanoatning kirib kelishi va yangi ishlab chiqarish korxonalarining qurilishi, sanoat ishlab chiqarishining ahvolini yoritish;

viloyatdagi agro-madaniy yangiliklar va ularning transformatsiyalashuvini tadqiq qilish, ushbu harbiy-ma’muriy birlikning iqtisodiy ko‘rsatkichlari, o‘ziga xosligi hamda alohida jihatlarini tahlil qilish;

metropoliya hukmronligi sharoitida Sirdaryo viloyatidagi ijtimoiy munosabatlar va ziddiyatlarni o‘rganish, mustamlaka ma’muriyatining bu boradagi chora-tadbirlarini yoritish va ularga xolisona baho berish;

mavzu bo‘yicha umumiy ilmiy xulosa chiqarish va ularga tayangan holda taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

[3] Mavzuning o‘rganilganlik darajasi dissertatsiyaning “Muammoning manbaviy asoslari va tarixshunoslik tahlili” deb nomlangan birinchi bobida batafsil yoritilgan.

Tadqiqot obyektini Rossiya imperiyasi hukmronligi davri (1867–1917-yillar)da Sirdaryo viloyatining ma’muriy va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tarixi muammolarini o‘rganish tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmeti etib Sirdaryo viloyatining Rossiya imperiyasi mustamlakasi davridagi ma’muriy va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, amalga oshirilgan tadbirlar va o‘zgarishlarni o‘rganish belgilangan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada fanlararo yondashuv, ilmiylik, tarixiylik va xolislik tamoyillari, shuningdek, tarixiy-qiyosiy tahlil va tizimlashtirish usullari qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘rganilayotgan davr Turkiston o‘lkasining Sirdaryo viloyatiga sanoatning kirib kelishi va yangi ishlab chiqarish korxonalarining qurilishi, sanoat ishlab chiqarishining ahvoli hamda agro-madaniy yangiliklar, mavjud sug‘orma yerlarda paxtachilikni rivojlantirishga e’tibor kuchaytirilib, aholi ehtiyoji uchun zarur bo‘ladigan oziq-ovqat yetishtirish imkoniyatlarining cheklanishi hamda mahalliy aholiga tegishli yerlarning ko‘chirish siyosati natijasida noqonuniy ravishda tortib olinishi dalillangan;

Turkiston o‘lkasi, jumladan, Sirdaryo viloyatining metropoliya sanoati uchun paxta tolasi, donli ekinlar va boshqa xomashyo manbaiga aylantirilishi mahalliy dehqonlarga ko‘p qiyinchiliklar keltirganligi, bunga qarshi yerli tub aholi kurashga majbur bo‘lganligi aniq manbalar asosida ko‘rsatilgan;

Rossiya imperiyasi Turkistondagi mustamlakachilik tizimini keng o‘rnatish maqsadida zabt etilgan hududlarga metropoliyadan ko‘chirib keltirilgan aholini tub yerli aholi yashayotgan qishloqlar yaqiniga joylashtirilganligi, o‘zbek dehqonlarining sug‘oriladigan yerlari hamda ko‘chmanchi aholining chorva boqadigan yaylov yerlarining kamayishi ularning imperiya ma’muriyatiga nisbatan noroziligining kuchayishiga sabab bo‘lganligi aniqlangan;

tadqiq etilayotgan davr Sirdaryo viloyati ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonidagi ziddiyatlar, yutuq va kamchiliklar, sohalar rivojining o‘ziga xos xususiyatlari manbalar tahlili asosida yoritilib, Yevropaning rivojlangan texnika hamda texnologiyalarining viloyat sanoat ishlab chiqarishida qo‘llanilishi soha taraqqiyotida tub o‘zgarishlar yuzaga keltirganligi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Tadqiqot mustamlaka hokimiyat tizimining tuzilishi, funksiyalari, o‘ziga xos jihatlari, Turkiston o‘lkasining Sirdaryo viloyatida harbiy boshqaruvning asosiy tamoyillari, faoliyat tarixi, maqsad va vazifalari, viloyat sanoati va qishloq xo‘jaligining ahvoli, an’anaviylik va undagi o‘zgarishlar, viloyatga sanoatning kirib kelishi va rivojlanishi kabi masalalarni yoritishda davriy tadqiqot ishlari, “Turkiston to‘plami” (“Туркестанский сборник”)da jamlangan maqolalar hamda O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA)dan olingan yangi ma`lumotlar bilan to‘ldirildi va ular ilk bor ilmiy muomalaga kiritildi.

Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasini mustamlakaga aylantirish borasidagi siyosati, podsho ma’murlarining o‘lka xalqlarini boshqarish sohasida

olib borgan sa’y-harakatlari, mustamlaka ma’muriyatining o‘lkada ruslashtirish siyosatini amalga oshirishi va Turkistonda, shu jumladan Sirdaryo viloyatida rus nufusini ko‘paytirishga intilishi, imperiyaning Turkistondagi ko‘chiruvchilik siyosati, kelgindi aholi vakillarining viloyat hududiga joylashtirilishi, metropoliyaning Turkiston o‘lkasini xomashyo manbaiga va rus sanoat mahsulotlari sotiladigan tobe bozorga aylantirishi, yutuq va muammolar o‘rganilib, ilmiy ma’lumotlardan O‘zbekiston tarixini o‘qitishda foydalanishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tarix fanida tan olingan yondashuv va usullarning qo‘llanilganligi, ko‘p turdagi tarixiy adabiyotlar va arxiv materiallardan foydalanilganligi hamda ilmiy xulosa va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi va vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning hal etilishiga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish, tarixiy tafakkur va o‘zlikni anglash, mustaqillik g‘oyalarini keng targ‘ib etishga oid nazariy-uslubiy xulosalarni ishlab chiqishda amaliy yordam berishi bilan izohlanadi. Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati shundaki, uning materiallaridan O‘zbekiston tarixi bo‘yicha umumlashtiruvchi tadqiqotlarni yaratishda “Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida Turkiston (Sirdaryo viloyati misolida)” mavzusidagi ma’ruzalarni tayyorlashda, xalqimizning imperiya mustamlakachiligi davridagi murakkab hayotiga bag‘ishlangan monografik ishlarni chop etishda, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari tizimida amaliy, seminar mashg‘ulotlarini uyushtirish va o‘tkazishda, shuningdek maxsus kurslarni olib borishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida Sirdaryo viloyatining ma’muriy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga doir olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

O‘zMA fondlari, jumladan, I-1-fond–Turkiston general-gubernatori devonxonasi; I-17-fond–Sirdaryo viloyat boshqaruvi materiallari, o‘rganilayotgan davr Sirdaryo viloyatiga oid sharhlar va boshqa ma’lumotlarda o‘lka, viloyat, uyezd va bo‘lis (volost) mustamlaka hokimiyat tizimlarining Turkistonni (Sirdaryo viloyati misolida) boshqarish bo‘yicha faoliyati, xalq ommasining ahvoli va uning mustamlaka tuzumga qarshi chiqishlari haqidagi ma’lumotlar, viloyat amaldorlarining siyosiy inqiroz, “favqulodda” va harbiy holat davrlarida e’lon qilgan qarorlari, mahalliy aholining bunday o‘zgarishlarga munosabati, imperiya ma’murlarining mustamlakachilik va ruslashtirish chora-tadbirlari haqidagi olingan natijalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalida 2023-yil 28-oktabrda efirga uzatilgan “Taqdimot” ko‘rsatuvining ssenariylarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2024-yil 8-yanvardagi 06-28-38-son ma’lumotnomasi). Natija o‘zbek davlatchiligida Rossiya imperiyasining

Turkistondagi mustamlaka davri tarixi bo‘yicha batafsil ma’lumotlarga ega bo‘lish imkonini beradi;

dissertatsiyada tadqiq qilingan materiallar, jumladan XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkistonning Rossiya imperiyasi istilosi natijasida mustamlakaga aylantirilishi, Turkiston o‘lkasi Sirdaryo viloyatining Rossiya imperiyasi davridagi siyosiy-ma’muriy va iqtisodiy ahvoli, XIX asrning oxiri–XX asr boshlarida mintaqaga sanoatning kirib kelishi hamda agro-madaniy yangiliklarga oid masalalar, shuningdek, Sirdaryo viloyatida moddiy va ma’naviy madaniyat, jumladan Islom dini, uning asosiy tayanchi bo‘lgan musulmon maktablari ustidan ham mustamlakachilik tartiblarining o‘rnatila borishi, mintaqa xalqlarining turmushi va ma’naviyatida islom madaniyatining ta’siri va mavqeyining kuchli bo‘lganligi imperiyaning ulug‘davlatchilik manfaatlariga zid ekanligi, mustamlakachi imperiya amaliyotchilari va mafkurachilari Turkistondagi islom madaniyatiga, musulmon maktablari va madrasalariga zimdan qarshi kurashib, uning mavqeyini sindirish chora-tadbirlarini qo‘llaganligi, mustamlaka sharoitidagi ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish pallasida rusiyzabon mutaxassislar bilan mehnat qilgan tub joy aholi vakillarining ham roli katta bo‘lganligiga oid ma’lumotlar Jizzax viloyati madaniyati tarixi davlat muzeyi ekspozitsiyalarida o‘z aksini topib, gid sharhlovchilari, ekskursiya yetakchilari va shu yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatayotgan professional hamda oliy ta’lim muassasalari uchun o‘quv adabiyotlar yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi “Madaniy meros” agentligining 2024-yil 2-avgustdagi 02-05/2877-son ma’lumotnomasi). Natija Sirdaryo viloyatining Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida kechgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy jarayonlari to‘g‘risida aniq ma’lumotlar olish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 13 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 8 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqotning mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ishlar chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyasi asosida natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami 5 ta (respublikada 2 ta, va xorijda 3 ta) maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilova qismlaridan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 133 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotdan ko‘zlangan asosiy maqsad va vazifalar aniqlashtirilib, ishning obyekti va predmeti, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan. Olingan natijalarning

ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati ko‘rsatilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, tadqiqotning hajmi, tuzilishi, dissertant e’lon qilgan ishlar ro‘yxati haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Muammoning manbaviy asoslari va tarixshunoslik tahlili”** deb nomlanib, Rossiya imperiyasi istilosi va uning oqibatlariga bag‘ishlangan qator qo‘lyozma asarlar, arxiv hujjatlari, esdalik to`plamlar, statistik to‘plam va hisobotlar tashkil etadi. Bu borada bir qancha tarixiy asarlarga qisqacha to‘xtalib o‘tish lozimdir. Xususan, XIX asrda yashab ijod qilgan tarixchi Muhammad Solihxo‘janing “Tarixi jadidayi Toshkand” (“Toshkentning yangi tarixi”) asari o‘rganilayotgan davr tarixini yoritishda muhim manbalardan biridir. Asar bizgacha uchta qo‘lyozmada (bittasi muallif dastxati, ikkitasi undan ko‘chirilgan nusxalar) yetib kelgan va ular hozirgi kunda O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanmoqda[4]. Asar muqaddima, ikki jildda umumiy tarix uslubida yozilgan. Manbaning birinchi jildida Sharq (O‘rta Osiyo) tarixnavisligi, ikkinchi jildida esa Qo‘qon xonligi va unga qo‘shni hududlar tarixi, O‘rta Osiyo xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, 1865–1889-yillarda Toshkent shahri va Turkistonda sodir bo‘lgan voqea-hodisalar yilma yil bayon qilingan[5]. Undagi muhim ma’lumotlardan yana biri, ruslar tomonidan Toshkentning bosib olinishi voqealari tafsilotlaridir. Shahar mudofaasida qo‘liga qurol olib qatnashgan muarrix harbiy harakatlar borishini ancha batafsil yoritgan. Shuningdek, kitobda Turkiston siyosiy hamda ma’naviy-ma’rifiy hayotida yorqin iz qoldirgan toshkentlik siymo Solihbek oxund dodxoh haqida ham kerakli ma’lumotlar bor. Toshkent shahri himoyasida jonbozlik ko‘rsatib, xalqning ishonchli siyosiy vakili sifatida nom qozongan Solihbek oxund haqida istiqlol yillaridagina matbuotda maqolalar e’lon qilindi, O‘zbekistonning yangi tarixida qayd etildi[6] va u haqida tarixiy risola[7] chop etildi.

Ishoqxon Junaydullaxo‘ja o‘g‘li Ibrat (1862–1937) yirik o‘zbek ma’rifatparvarlaridan bo‘lib, uning “Tarixi Farg‘ona” (“Farg‘ona tarixi”)[8] asari Farg‘ona o‘lkasi xo‘jaligi, ma’muriy tuzilishi, madaniy hayoti haqida ham qiziqarli ma’lumotlarga boy bo‘lib, u o‘lkashunoslikka ham oid asardir. Muallif bu asarida ma’rifatparvarlik g‘oyalariga sodiq qolib, qoloqlik va turg‘unlikni qoralab, vatandoshlarining taraqqiyot yo‘lidan borishlariga umid qiladi.

Yana bir muarrix Mulla Olim Maxdum hojining 1908–1915-yillarda o‘zbek tilida yozilgan “Tarixi Turkiston”[9] asari tadqiqot ishining mohiyatini yoritib berishda muhim manbadir. Asarda Qo‘qon va Xiva xonliklari hamda Buxoro

---

[4] Султонов Ў.А. Муҳаммад Солиҳхўжа ва унинг “Тарихи жадидайи Тошканд” асари. – Тошкент: “O‘zbekiston” НМИУ, 2009. – 269 б.

[5] Ўзбекистон тарихи (хрестоматия). 3-жилд. XVI–XIX асрлар. Масъул муҳаррир Н.Н. Ҳабибуллаев, илмий муҳаррир О.Бўриев таҳр.остида. – Тошкент, 2013. – Б. 219.

[6] Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: “Шарқ”. – 2000. – Б. 83-91.

[7] Солиҳбек Додхоҳ // Тузувчилар: Омонулло Бўриев, Нуриллабек Убайдуллабек ўғли. – Тошкент: “Фан”, 2006.

[8] Исҳоқхон Жунайдуллахўжа ўғли Ибрат. Фарғона тарихи. – Тошкент: “Камалак”, 1991. – 277 б.

[9] Мирзо Олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2008. – 242 б.

amirligida bo‘lgan voqealar, jumladan Qo‘qon lashkarining Qashqarni xitoyliklardan ozod qilish uchun yurishlari va Buxoro amiri Nasrulloning ingliz elchilarini qatl qilishi kabi muhim ma’lumotlar mavjud.

O‘lka zabt etilib, tabiiy resurslariga va uni boshqarishga qiziqish kuchaygan davrda rasmiy yo‘nalishlar uchun mualliflar tomonidan e’lon qilingan ishlar ham yuzaga keldi, ularga D.I. Romanovskiy, L.F. Kostenko, V.V. Grigoryev, A. Middendorf, I.V. Mushketov, V.P. Nalivkin, A. Ivanov, N.P. Ostroumov, N.S. Likoshin, V.I. Masalskiy, I.I. Geyer, S.M. Gramenitskiy, K.K. Abaza, A.A. Kaufman, M.A. Terentyev, A.I. Dobrosmislov[10] va boshqalarning asarlarini kiritish mumkin. Mualliflarining ko‘pchiligi imperiya va Turkistondagi boshqaruv va harbiy muassasalarining mansabdor shaxslari bo‘lgani uchun o‘lkaning o‘tmishiga va kelajagiga buyuk davlatchilik ruhida yondashishgan.

M.A. Terentyevning uch jildlik “O‘rta Osiyoni istilo qilish tarixi” nomli asarida ruslarning o‘lkadagi bosqinchilik siyosati izchil yoritilgan[11], unda imperiya tomonidan O‘rta Osiyoning bosib olinishi, rus armiyasining mahalliy aholiga nisbatan zo‘ravonligi aks ettirilgan. A.I.Dobrosmislovning “Toshkent o‘tmishda va bugungi kunda”[12] nomli tarixiy asarida esa shaharning rus bosqiniga qadar bo‘lgan tarixiy geografik tavsifi, rus bosqini va mustamlaka davrida o‘lkada mahalliy boshqaruv va sud tizimi, ta’lim va madaniyat, dehqonchilik, bog‘dorchilik va hunarmandchilik, ishlab chiqarish va savdo kabi masalalar atroflicha sharhlanadi.

N.I. Kraft, V.N. Kaplun, S.N. Tregubov, N. Fioletov, N. Voshinin[13] kabi mualliflar imperiya tomonidan Turkistonni boshqarish bo‘yicha qonunchilik aktlarini ishlab chiqilishi jarayoni, sudlov tizimi asoslari, yangi davlat korxonalari, moliya tizimlarining joriy qilinishi bo‘yicha aniq ma’lumot

---

[10] Романовский Д.И. Заметки по Среднеазиатскому вопросу. – СПб., 1868. – 291 с.; Костенко А.Ф. Средняя Азия и водворение в ней русской гражданственности. – СПб., 1871. – 417 с.; Григорьев В.В. Русская политика в отношении Средней Азии. – СПб., 1874. – 30 с.; Миддендорф А. Очерки Ферганской долины. – СПб., 1882. – 303 с.; Мушкетов И.В. Туркестан. – Т.I. – СПб., 1886. – 394 с. ; Наливкин В.П. Краткая история Кокандского ханства. – Казань, 1886. – 215 с.; Иванов А. Русская колонизация в Туркестанском крае. – СПб., 1890. – С. 226-244.; Остроумов Н.П. Сарты. Этнографические материалы (общий очерк). – Ташкент, 1890; Он же. Сарты. Этнографические материалы (общий очерк). – Ташкент, 1890. – 174 с.; Ликошин Н.С. Переселение и переселенцы. – Самарканд, 1892. – 73 с.; Он же. Полжизни в Туркестане. Очерки быта туземного населения. – Пгр., 1916. – 415 с.; Масальский В.И. Хлопковое дело в Средней Азии. – СПб., 1892. – 166 с.; Гейер И.И. Голод и колонизация в Сырдарьинской области в 1891 году. – Сборник материалов для статистики Сырдарьинской области. – Т.3. Ташкент, 1894, с.1-81.; Он же. Весь Русский Туркестан. – Ташкент, 1908. – 438 с.; Граменицкий С.М. Очерк развития народного образования в Туркестанском крае. – Ташкент, 1896. – 95 с.; Абаза К.К. Завоевание Туркестана. – СПб., 1902. – 310 с.; Кауфман А.А. К вопросу о русской колонизации Туркестанского края. – СПб., 1903. – 205 с.; Он же. Переселение. Мечты и действительность. – М., 1906. – 37 с.

[11] Жумаев У.Х. Россия империясининг Туркистондаги солиқ сиёсатининг шаклланиши: асосий босқичлари ва тараққиёти. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий университети, 2012. – Б. 16.

[12] Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. Вып.4. – Ташкент, 1912. – 95 с.

[13] Крафт Н.И. Судебная система в Туркестанском крае и степных областях. – Оренбург, 1898. – 215 с.; Каплун В.Н. Положение об управлении Туркестанского края. – Ташкент, 1903. – 211 с.; Трегубов С.Н. Прокурорский надзор в народном суде Туркестанского края. Журнал Министерства юстиции. №11-2. – СПб., 1903; Вощинин В.П. Очерки нового Туркестана. Свет и тени колонизации. – СПб., 1914. – 86 с.; Фиолетов Н. Суды казиев в Средне-Азиатских республиках // Советское право. – №1(25), 1927.

berishsa-da, mustamlakachilar tomonidan saqlab qolingan ijtimoiy-huquqiy tuzilmalarni izchil tahlil qilishga urinmaydilar. Bu kabi ishlar shunchaki mavzular tavsifidan iborat bo‘lib, ularda keltirilayotgan faktlar jiddiy tahlilga muhtoj.

Turkistondagi agrar siyosatdan ko‘zlangan bosh maqsad va asosiy yo‘nalishlar imperiyaning Davlat mulklari va ziroatchilik vaziri A.V. Krivoshein asarlarida ham ko‘rsatib o‘tilgan: “Bu markaziy masalada uch ko‘rinish mavjud. Agar birinchisida yarqirab turgan yozuv–“paxta” bo‘lsa, ikkinchisida–“sug‘orish” va nihoyat, uchinchisida uncha ko‘zga tashlanib turmagan bo‘lsa ham, aslida esa hammasidan muhimi – “ruslarni ko‘chirib keltirib o‘rnashtirish” yozuvi turibdi”[14]. Podsho vaziri imperiya mustamlaka siyosatining Turkistondagi asosiy yo‘nalishlarini uch so‘z bilan juda lo‘nda, ya’ni “paxta”, “sug‘orish”, “ruslarni ko‘chirib keltirish” bilan ifodalaydi.

Tadqiqotning manbaviy bazasiga rasmiy ish yuritish hujjatlari, matbuot va arxiv materiallari, statistik qaydnomalar va xotiralarni kiritish mumkin[15]. Bu manbalar ishning asosiy hujjatlar bazasini tashkil qiladi: ma’lumot ko‘lami va ahamiyatiga ko‘ra O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA) hujjatlar fondlari: I-1-fond– Turkiston general-gubernatori devoni, I-17-fond– Sirdaryo viloyat boshqaruvi, I-36-fond–Toshkent shahar boshlig‘i boshqarmasi, I-461-fond–Turkiston rayoni qo‘riqlash bo‘limi, I-463-fond–Toshkent eski shahar qismining politsiya boshqarmasi, I-718-fond–Toshkent shahar Dumasi materiallari, Sirdaryo viloyatiga oid sharhlar (Obzori Sirdarinskoy oblasti) va boshqa bir qancha fondlardan olingan ma’lumotlar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularda o‘lka, viloyat, uyezd va bo‘lis (volost) mustamlaka hokimiyat tizimlarining Turkiston (shu jumladan, Sirdaryo viloyati)ni boshqarish bo‘yicha faoliyati, xalq ommasining ahvoli va uning podshohlik tuzumiga qarshi chiqishlari haqidagi ma’lumotlar, viloyatdagi amaldorlarning siyosiy inqirozlar, “favqulodda” va harbiy holatdagi davrlarda e’lon qilingan, ularning xatti-harakatlarini ta’riflovchi voqeliklar, mahalliy aholining bu kabi chora-tadbirlarga munosabati, imperiya ma’murlarining mustamlakachilik va ruslashtirish chora-tadbirlari haqidagi hujjatlar tadqiqotning asosiy manbaviy asosini tashkil etdi.

Arxiv manbalarining alohida guruhini O‘zMAdagi Turkiston general-gubernatorligi o‘quv yurtlari boshqarmasi (I-47-fond), Sirdaryo viloyati xalq

---

[14] Кривошеин А.В. Записка главноуправляющего земледелием и землеустройством о поездке в Туркестан. – СПб., 1912. – С. 111.

[15] Гейер И.И. Крестьянская колонизация в Сыр-Дарьинской области //Сборник материалов для статистики Сыр-Дарьинской области. – Ташкент: Типолитография наследников С.И.Лахтина, 1892. – С. 201-320.; Сборник материалов Сыр-Дарьинской области. – Ташкент: Типо-литография наследников С.И.Лахтина, 1892. –514 с.; Сборник материалов для статистики Сыр-Дарьинской области. – Т.VII. – Типо-литография торгового дома “Ф. и Г.Бр.Каменские”, 1899. – 150 с.; Сборник материалов для статистики Сыр-Дарьинской области. –Т.XI. – Ташкент: Типо-литография В.М.Ильина, 1904. – 496 с.; Гаврилов Н. Переселенческое дело в Туркестанском крае (области Сырдарьинская, Самаркандская и Ферганская). Отчёт по служебной поездке в Туркестан осенью. – СПб., 1911. – 336 с.; Гулишамбаров С.И. Экономический обзор Туркестанского района обслуживаемого Средне-Азиатской железной дорогой (Закаспийская, Самаркандская, Ферганская, Сыр-Дарьинская и Семиреченская областей; а также Бухарское и Хивинское ханства). Тт.I-II. – Асхабад: Элетропечатная З.Д. Джаврова, 1913. – 588 с.

maorifi noziri (I-49-fond)lar bo‘lib, ulardagi materiallar mustamlaka ma’murlarining ta’lim tizimini ruslashtirishga qaratgan faoliyati haqidadir. O‘rganilayotgan davr tarixini yoritishda tarixiy hujjatlar sanaluvchi vaqfnomalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ularning asosiy qismi O‘zMA va O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondlari, shuningdek, viloyatlardagi muzeylardan ham o‘rin olgan. Jumladan, XIII–XIX asrlarga oid bir qator vaqf hujjatlari R.G.Muqminova, R.N.Nabiyev kabi tadqiqotchilarning ishlarida matn va tarjimalari chop etilgan[16].

Mavzuning tarixshunosligi ham keng qamrovli bo‘lib, ularni quyidagi uch guruhga bo‘lish maqsadga muvofiqdir: 1. Sovet davrida olib borilgan tadqiqotlar. 2. Mustaqillik davrida amalga oshirilgan tadqiqotlar. 3. Xorijiy nashrlar.

Sovet davrida olib borilgan tadqiqotlarda podsho Rossiyasi mustamlakachilik siyosatining tub mohiyati G.I. Safarov, T. Risqulov, P.G. Galuzo, V. Lavrentyev kabi mualliflarning xulosalarida ishonarli tarzda aks etgan. Jumladan, tadqiqotchi G.I. Safarov[17] daliliy misollar asosida Turkistondagi mustamlaka idorasi mashinasining kirdikorlari va podshoh amaldorlarining o‘lka boyliklarini ayovsiz talaganliklarini ko‘rsatib bera olgan.

Yana bir tadqiqotchi P.G. Galuzo[18] o‘lkamizning mustamlakaga aylantirilishi tub aholi ijtimoiy-iqtisodiy hayotini og‘irlashtirganligini, shuningdek, imperiyaning Turkistondagi ma’muriy-boshqaruv tizimining amaliyotdagi asosiy yo‘nalishlarini yoritib bergan. Galuzo hokimiyatning volost, qishloq, ovul kabi bo‘g‘inlarining rus apparati oldidagi huquqsizligini alohida ta’kidlab o‘tadi.

Respublikamizda ilmiy tadqiqotlarning xarakteri va uslubiyatidagi keskin o‘zgarishlar mamlakat istiqlolga erishganidan keyin yuzaga keldi, tarixiy tafakkurni tiklash, mustamlakachilik davrining haqiqiy qiyofasini yoritib berishning chinakam jarayonlari boshlandi. Bu davrda respublikamiz olimlari tomonidan o‘zida istiqlol ruhi, muhim uslubiy va ilmiy-nazariy masalalarga doir qator tadqiqotlar yaratildi. A.I. Ginzburg, R.A. Yuldashev, X.Sh. Avezova, G‘.A. Axmadjonov, N.U. Musayev, F. Isxoqov, H.Z. Ziyoyev, N.A. Abduraximova, D.H. Ziyoyeva, D.A. Alimova, S.B. Shodmonova[19] kabi

---

[16] Мукминова Р.Г. К истории аграрных отношений в Узбекистане в XVI в. По материалам “Вакфнаме”. – Ташкент, 1961. – 351 с.

[17] Сафаров Г.И. Колониальная революция (опыт Туркестана). – М., 1921. – 148 с.

[18] Галузо П.Г. Туркестан-колония. Очерк истории Туркестана от завоевания русскими до революции 1917 года. – М., 1929. – С. 57.

[19] Гинзбург А.И. Русское население в Туркестане. – М., 1991. – 144 с.; Юлдашев Р.А. Формирование национальной буржуазии в Туркестане (конец XIX–начало XX вв): Автореф.дисс. кандидата ист.наук. – Ташкент, 1994. – 26 с.; Ахмаджонов Г.А. Российская империя в Центральной Азии (История и историография колониальной политики царизма в Туркестане). – Ташкент: “Фан”, 1995. – 217с.; Ўша муаллиф: Россия империяси Марказий Осиёда (Чоризмнинг Туркистондаги мустамлакачилик сиёсати тарихи ва тарихнавислиги). – Тошкент: М.Ч. “Ta’lim manbayi”жамияти, 2003. – 270 б.; Мусаев Н.У. Туркистонда капиталистик ишлаб чиқариш муносабатларининг пайдо бўлиши (XIX асрнинг охири–XX аср боши). – Тошкент, 1995. – 106 б.; Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867–1917 гг). – Ташкент, 1997. – 210 с.; Зиёев Ҳ.З. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш (XVIII–XX аср бошлари). – Тошкент: “Шарқ”, 1998. – 480 б.; Ўша муаллиф: Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи (Милоддан олдинги асрлардан то 1991 йил 31 авг.гача). – Тошкент: “Шарқ”, 2001. –

tarixchilarning mustamlakachilik davriga doir qator izlanishlarida o‘rganilayotgan muammoga tegishli bir qancha masalalar yoritib berilgan. Shuningdek, D.Urakov nomzodlik dissertatsiyasida imperiya ma’muriyatining rasmiy hisobotlari[20] tadqiq qilingan bo‘lsa, tadqiqotchi K.A. To‘xtabekov izlanishlarida imperiyaning Birinchi jahon urushi yillarida o‘lkada o‘tkazgan iqtisodiy siyosatining mustamlakachilik mohiyati[21] o‘z aksini topgan.

Xorijiy tarixshunoslikda XIX asrning ikkinchi yarmi–XX asr boshlarida imperiya hukumatining chekka o‘lkalarda yuritgan mustamlakachilik siyosati sovet totalitar tuzumi davrida ham davom ettirilganligi ochiqchasiga fosh qilinadi. S. Abashin[22], Mustafo Cho‘qay[23], Boymirza Hayit[24], Ahmad Zakiy Validiy To‘g‘on[25], Y.Skayler[26] kabi tadqiqotchilarning asarlari shular jumlasidandir. Mualliflar tomonidan taqdim etilayotgan faktlar, voqea-hodisalarning ishtirokchilariga berilgan baholar, turli siyosiy kuchlar, ayniqsa, Rossiya va Turkiston rahbariyati pozitsiyasiga va faoliyatiga berilgan ta’riflar o‘rganilayotgan davrda Turkistondagi mavjud siyosiy vaziyat manzarasini aniqroq chizib berishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, Turkistonning mustamlaka davri rasmiy hujjatlari, mahalliy hukmdorlarning faoliyatiga oid materiallar, O‘rta Osiyoga tashrif buyurgan xorijiy olimlarning asarlari hamda memuar adabiyotlar o‘rganilayotgan davr ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qilsa, tarixshunoslik tahlili shuni ko‘rsatadiki, Rossiya imperiyasining Turkistonda, jumladan Sirdaryo viloyatida yuritgan mustamlaka tartiboti va uning rivojlanish tendensiyalari masalalarining ayrim jihatlari tadqiq qilingan, salmoqli darajada bilimlar to‘plangan va muayyan natijalarga erishilgan. Shunday bo‘lsada,

---

448 б.; Абдурахимова Н.А., Рустамова Г. Колониальная система власти в Туркестане во второй половине XIX–1 четверти XX вв. – Ташкент: “Университет”,1999. –162 с.; Она же. Абдурахимова Н., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Тошкент: “Академия”, 2002. – 240 б.; Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: “Шарқ”, 2000. – 464 б.; Зиёева Д.Ҳ. Туркистон миллий озодлик ҳаракати: (мустабид тузумга қарши). – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашри, 2000. – 176 б.; Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. Масъул муҳаррирлар: проф.Д.А. Алимова, акад.Э.В. Ртвеладзе. – Тошкент: “Шарқ”, 2001. – 224 б.; Шадманова С.Б. Вопросы социально-экономического и культурного положения Туркестана на страницах периодической печати (1870–1917 гг.): Автореф. дис...д-ра ист.наук. – Ташкент: Институт истории АН РУз, 2011. – 62 с.

[20] Ураков Д. Туркистонда Россия империяси маъмуриятининг расмий ҳисоботлари тарихий манба сифатида: Тарих фан.номзоди дисс...автореферати. – Тошкент: ЎзМУ, 2006. – Б. 23.

[21] Тўхтабеков К.А. Чор Россиясининг Биринчи жаҳон уруши йилларида Туркистон ўлкасида ўтказган иқтисодий сиёсатининг мустамлакачилик моҳияти: Тарих фан. номзоди дисс...автореферати. – Тошкент: ЎзМУ, 2011. – Б. 22.

[22] Абашин С.Н. Быть или не быть общине в Туркестане: споры в русской администрации в 1860–1880-х годах // “Вестник Евразии”, 2001. – №4. – С. 35-62; Его же. Ислам в бюрократической практике царской администрации Туркестана (Вакуфное дело Дахбитского медресе, 1892–1900) // Сборник русского исторического общества. – Т.7 (155). Россия и мусульманский мир. – М., 2003. – С. 163-191.

[23] Чокаев М. Туркестан под властью советов: к характериститке диктатуры пролетариата. – Алма-Ата: “Айкап”, 1993. – 160 с.

[24] Др. Боймирза Ҳайит. Туркистон Россия ва Хитой оралиғида (XV аср иккинчи ярмидан – XX аср сўнгига қадар). – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2023. – 528 б.

[25] Валидий Аҳмад Закий. Хотиралар: Туркистонда мустақиллик ва озодлик курашлари тарихи / М. Абдураҳмонов таржимаси. – Тошкент: “Истиқлол нури”, 2014. – Б. 119.

[26] Скайлер Ю. Туркистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари / Кириш, инглиз тилидан қисқартирилган таржима, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи З.А.Саидбобоев. – Тошкент: “O‘zbekiston” НМИУ, 2019. – 336 б.

Turkistonda imperiya mustamlaka davlatchiligining tarkib topgan tarixiy tajribasi, byurokratik xususiyatlari, tarixiy bosqichlarda takomillashib borish dinamikasi va tendensiyalari jiddiy tarzda qayta fikrlashni talab qiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**1867–1917-yillarda Sirdaryo viloyatining siyosiy-ma'muriy va iqtisodiy ahvoli"** deb nomlangan. Ma'lumki, podsho Rossiyasi Turkistonda boshqaruvni tashkil etishga uni zabt etgandanoq kirishdi. 1865-yil 2-martda Rossiya Senatining Orenburg general-gubernatorligi tarkibida[27] Orol dengizidan Issiqko'lgacha bo'lgan O'rta Osiyo xonliklari bilan chegaradosh hududlarda Turkiston viloyatini tashkil qilish to'g'risidagi farmoni e'lon qilindi. Bu hududda, dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra 453 ming kishi istiqomat qilgan. Shu sanadan boshlab o'lka Orenburg gubernatorligi tasarrufiga o'tdi. Turkiston viloyati iqtisodiy vazifalardan ko'ra ko'proq strategik siyosiy-harbiy vazifalarni hal etish uchun tuzilgan harbiy-ma'muriy tuzilma rolini bajarib berishi kerak edi.

Turkiston viloyati uch bo'limga: o'ng qanot, markaz va chap qanotga bo'lingan. Biroz keyinroq Sirdaryo rayoni nomini olgan o'ng qanotga Aralsk, 1-fort (keyinchalik bu nom Kazalinsk (Qazala)ga o'zgartirildi) va Perovsk; markazga Turkiston va Chimkent rayonlari; chap qanotga Avliyoota, Marke va Pishpak shaharlari kirgan edi. Viloyatning dastlabki ma'muriy markazi Chimkent shahri edi. Toshkent ruslar tomonidan egallanib, to shahar imperiya tarkibiga rasman kiritilgunga qadar Chimkent mustamlakachilar uchun ma'muriy markaz vazifasini o'tagan. Shundan so'ng Turkiston viloyatining ma'muriy qurilishini tartibga solishga qaratilgan me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish tashabbusi imperiya harbiy qo'mondonligi qo'liga o'tdi. Yangi Qo'qon liniyasi qo'mondoni general M.G. Chernyayev shtabi tomonidan tayyorlangan, bosib olingan hududlarning harbiy-ma'muriy tuzilishi to'g'risida birinchi ishlab chiqilgan hujjat "O'rta Osiyo chegara viloyati to'g'risida Nizom" loyihasi deb ataldi[28]. Lekin imperiya Harbiy vazirligi o'z rejalarini puxtalik bilan niqoblab, bu loyihani qayta ishlagan. Imperator Aleksandr II 1865-yil 6-avgustda "Turkiston oblastini boshqarish to'g'risida muvaqqat Nizom"ni tasdiqladi[29]. Viloyat tarkibiga birinchi yilda Orol dengizidan Issiqko'lgacha, Sharqiy Turkiston chegaralaridan Toshkent vohasigacha bo'lgan hududlar kiritildi.

1865-yilda Rossiyada o'tkazilgan harbiy-ma'muriy rayonlashtirish islohotiga ko'ra G'arbiy Sibir okrugi tuzildi. Toshkent zabt etilgandan so'ng Turkiston viloyati tuzilib, uning tarkibiga bo'lajak Sirdaryo viloyatining butun hududi va Yettisuvning kichik bir qismi kiritildi[30]. "Muvaqqat Nizom"da "harbiy-xalq boshqaruvi" belgilab qo'yilgan bo'lsada, aslida butun harbiy va fuqarolik hokimiyati Turkiston viloyati Harbiy gubernatori, joylarda esa harbiy

---

[27] Галузо П.Г. Аграрные отношения на юге Кахахстана в 1867–1914 гг. Издательство "Наука", Алма-Ата, 1965. – С. 33, 34.

[28] Ғаффоров Ш. Тарих ва тақдир: Россия империясидан Туркистонга кўчирилганлар. – Тошкент: "Фан", 2006. – Б. 47.

[29] Абдурахимова Н.А. Колониальная система власти в Туркестане (вторая половина XIX–начало XX вв.): Автореф.дисс.докт.истор.наук. – Ташкент, 1994. – С. 30.

[30] Галузо П.Г. Аграрные отношения на юге Кахахстана в 1867–1914 гг. Алма-Ата: Изд.во "Наука", 1965. – С. 34.

komendant ham hisoblangan bo‘limlar boshliqlari ixtiyorida edi[31]. “Muvaqqat Nizom”a muvofiq, mahalliy ma’muriyat boshlig‘i harbiy gubernator edi, unga harbiy va harbiy bo‘lmagan hokimiyat topshirildi. Bu lavozimga rus amaldorlari tayinlanib, ularga mahalliy aholi ustidan nazorat yurituvchi mahalliy boshqaruvchilar bo‘ysundirildi[32]. Ushbu boshqaruvchilarning vazifasi – karvon tijorati xavfsizligini ta’minlash, mahalliy aholidan soliqlarni yig‘ish, aholining turli majburiyatlarni bajarayotganligini nazorat qilishdan iborat edi. Mahalliy boshqaruvchilar zimmasiga sudlov funksiyalari ham yuklatilgan, ular mahalliy va rus vakillari aralashgan qotillik, o‘g‘rilik va talonchilikka oid jinoiy ishlar bilan shug‘ullangan.

Natijada Turkiston xalqlari ikki tomonlama zulm ostida qoldilar. Ular uchun saqlab qolingan xonlik ma’muriy-soliq tizimi Rossiya politsiya-byurokratik davlatining butun qudrati va milliy-mustamlaka zulm usullari bilan yanada kuchaytirildi. Biroq “Muvaqqat Nizom”da ko‘rsatilgan o‘lkani boshqarish asoslari yetarli darajada o‘z samarasini bermadi, hayot sinovlaridan o‘tolmadi, mustamlakachilar nazaridagi soliq tizimini izchil ta’minlay olmadi, hokimiyatga oshkora qarshi chiqqan mahalliy aholi ijtimoiy tabaqalarining siyosiy ta’sirini yo‘qota olmadi. Rossiya hukumati Turkistonda o‘z mustamlaka hukmronligini o‘rnatar ekan, shu bilan bir qatorda “O‘rta Osiyo masalasi hali-beri hal etilishdan uzoq bo‘lib, boshqa bir qancha muammolar qatorida cheklanmagan hokimiyat uchun ham mohiyatan, ham istiqbol nuqtai nazaridan ancha nozik masala hisoblanadi”[33], deya tasdiqlaydi.

1867-yil 14-iyulda imperator Aleksandr II Qo‘qon va Buxorodan tortib olinib, Rossiyaga qo‘shilgan hududlar hisobiga Turkiston general-gubernatorligi tuzish to‘g‘risida farmon[34] berdi. Turkiston general-gubernatorligi 1867–1886-yillarda viloyat va uyezdlarga bo‘lingan edi. Xonliklar bilan chegaradosh joylarda uyezdlar o‘rniga harbiy-hududiy birliklar – okruglar, bo‘limlar va rayonlar tashkil etildi. Mazkur general-gubernatorlik dastavval ikkita viloyatdan tashkil topdi. Markazi Toshkent bo‘lgan – Sirdaryo va markazi Verniy shahri bo‘lgan Yettisuv. 1868-yilda Sirdaryo viloyati tarkibida Avliyoota, Qazala (Kazalinsk), Qurama (markazi – Qo‘yliq qishlog‘i), Perovsk, Turkiston, Xo‘jand va Chimkent uyezdlari tashkil qilindi[35]. Toshkent shahri mustaqil ma’muriy birlikni tashkil etdi.

Hududni tashkillashtirishda eng quyi bo‘g‘in – bo‘lis (volost) hisoblangan. Ammo, volost boshqaruvi faqat Farg‘ona viloyati hamda Zarafshon okrugida joriy qilindi. Boshqa joylarda esa ko‘chmanchi aholi sonining ko‘pligi sababli, volostlar bilan bir qatorda, aholi o‘troq yashaydigan rayonlarda oqsoqolliklar ham tashkil qilingan. Jumladan, Sirdaryo viloyatining Xo‘jand uyezdi o‘ziga

---

[31] Др. Боймирза Ҳайит. Туркистон Россия ва Хитой оралиғида (XV аср иккинчи ярмидан–XX аср сўнгига қадар). – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2023. – Б. 226-231.

[32] Абдурахимова Н., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Тошкент: “Академия”, 2002. – Б. 32.

[33] Аҳмаджонов Ғ.А. Россия империяси Марказий Осиёда. – Тошкент: М.Ч. “Ta’lim manbayi” жамияти, 2003. – Б. 93.

[34] Проект положения об управлении в Семиреченской и Сырдарьинской областях. – СПб., 1867. – С. 66.

[35] O‘zMA, I-1-fond, 20-ro‘yxat, 117-ish, 11-varaq.

xos lokal xususiyatlarga ega bo‘lib, mazkur hudud uchta – Xo‘jand, O‘ratepa va Jizzax rayonlariga bo‘linardi. Viloyat Turkiston general-gubernatorligining shimoliy qismini egallagan bo‘lib, u uzunligi bo‘yicha sezilarli darajada cho‘zilgan parallelogramm shaklini eslatadi[36]. Viloyat hududini Orol-Kaspiy havzasining sharqiy qismi, janubda Turkiston tizmalari, shimolda Kalmas tog‘lari va g‘arbiy nuqtasi Orol dengizidagi Perovsk ko‘rfazining qoq o‘rtasigacha bo‘lgan yerlar tashkil qilgan. Viloyat janubdan Samarqand viloyati, sharqdan Farg‘ona, shimoli-sharqdan Yettisuv, shimoldan Oqmola va To‘rg‘ay, g‘arbdan Amudaryo daryosi bilan chegaradosh. Sirdaryo maydoni bo‘yicha u eng katta viloyat sanalib, 443,444 kv. verstni egallaydi, ya’ni Farg‘ona va Samarqand viloyatlaridan 7-8 marta kattaroq[37]. Mazkur viloyat har taraflama ruslar tasarrufidagi joylar bilan o‘ralgan, faqatgina janubda, nisbatan kichik makonda Buxoro xonligi hududiga tegishli yerlarga to‘qnash keladi. Orol dengizidagi Perovskiy ko‘rfazi shimoiy qirg‘og‘i chizig‘ining salkam yarmidan boshlangan To‘rg‘ay viloyati bilan chegara, shimoli-sharqdan Termembes tog‘iga og‘adi; bu yerdan to‘g‘ridan to‘g‘ri shimolga, Orsk-Kazalinsk traktidagi Terakli pochta stansiyasigacha boradi; bu stansiyadan chegara sharqqa to‘g‘ri burchak ostida og‘adi va eng kichik shimoliy qiyalik orqali Qoraqum cho‘lining shimolida joylashgan Kalmas tog‘igacha yetib boradi[38]. Kalmas tog‘idan chegara janubi-sharqda Muzbel traktiga qayriladi, chapga Oqqum tog‘iga kichik burilish yasab, uning tog‘ tizmalari bilan tutash joyiga eltadi.

O‘zMAda saqlanib kelayotgan Sirdaryo viloyatiga oid statistik sharhlarga tayanib shuni aytish mumkinki, XIX asrning oxirlarida bu mintaqada ham sanoat ishlab chiqarishi asosan aholining maishiy ehtiyojlariga xizmat ko‘rsatuvchi mayda hunarmandchilikdan iborat edi[39]. Jumladan, viloyatning ko‘chmanchi aholisi orasida azaldan hunarmandchilikning kigiz tayyorlash, uy jihozlari ishlab chiqarish, oila ehtiyoji uchun teri va mo‘yna ishlab chiqarish kabi turlari keng yo‘lga qo‘yilgan edi.

O‘rta Osiyoda monokultura ixtisoslanishi ichki asosiy xo‘jalik tarmoqlarining xonavayron bo‘lishini taqozo etardi. Rossiyaning kapitalistik sanoat mahsulotlari O‘rta Osiyo bozorlarini egallay borishi bilan mahalliy hunarmandlar–to‘qimachilar, ipakchilar, temirchilar va boshqalarning xo‘jaliklari tushkunlikka uchradi[40]. O‘lkada paxta ekish ko‘paytirilib, g‘alla va boshqa oziq-ovqat yetishtirish bora-bora kamayib ketdi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonga Rossiyadan sanoat mahsulotlarining keltirilishi ortib borgan sari mahalliy hunarmandchilik inqirozga uchray boshladi. Jumladan, Sirdaryo viloyatida to‘qimachilik sohasi keng rivojlangan soha bo‘lsada, bu tarmoq yangi, zamonaviy to‘quv dastgohlariga ehtiyoj sezmoqda edi. Sirdaryo viloyatida kichik korxonalarning

---

[36] Обзор Сырдарьинской области за 1887 год. Описание составленное по официальным источникам, Е.Смирновым. – СПб., 1887. – С. 3.
[37] Шахназаров А.И. Сельское хозяйство в Туркестанском крае. – СПб., 1908. – С. 12.
[38] Обзор Сырдарьинской области за 1887 год. Описание составленное по официальным источникам, Е.Смирновым. – СПб.,1887. – С. 3, 4.
[39] Обзор Сырдарьинской области за 1886 год. – Ташкент, 1916. – С. 93.
[40] Ўзбекистон ССР тарихи. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1982. – Б. 86.

salmog‘i yuqori bo‘lgan. Hunarmandchilikda uy-ro‘zg‘or ishlarida xo‘jalik uchun zarur bo‘lgan barcha jihozlar: egar-jabduq, sandiq, mis idishlar, choponlar, charm buyumlar, sopol, yog‘och, kumush, zargarlik buyumlari, ketmon, pichoq, maxsi, kalish va hokazolar tayyorlangan. Movut ishlab chiqarishga bo‘lgan talab ancha yuqori bo‘lgan. Viloyatda namat eng ko‘p tayyorlanardi, uni to‘qish bilan asosan hududda yashovchi qirg‘iz ayollari shug‘ullangan. Mintaqada erkin kapitalning yetishmasligi, sanoat bozorlaridan markaziy shaharlarning ancha olisda joylashganligi, zavod va fabrika sanoatini eng yangi mashina va asbob-uskunalar bilan ta’minlashdagi muammolar tadbirkorlar uchun qator qiyinchiliklarni keltirib chiqargan[41].

1886-yilga kelib umumviloyat zavod va fabrika sanoatidan keladigan yalpi daromad 1451230 rublni tashkil etgan. Korxonalar asosan Toshkentda ishga tushirilganligi bois shaharning yillik daromadi 896.960 rublni tashkil qilgan, bu yesa Sirdaryo viloyati zavod va fabrikalaridan tushuvchi butun daromadning 62 % i demakdir. O‘rganilayotgan davr ijtimoiy-iqtisodiy tarixiga bag‘ishlangan qator ilmiy tadqiqotlarda o‘lka sanoati va texnik holati quyi pog‘onalarda bo‘lganligi, mustamlaka boshqaruvining asosiy e’tibori qishloq xo‘jaligidan olinadigan xomashyo zaxiralariga qaratilganligi atroflicha tahlil etilgan. Jumladan, tadqiqotchi olima S.B.Shodmonovaning ta’kidlashicha, Rossiya imperiyasidagi sanoat korxonalarining soni va texnik jihozlanishi bo‘yicha Yevropa mamlakatlari va AQShdan ortda qolgan[42].

Har qancha ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramasdan Turkistonning boshqa mintaqalari singari Sirdaryo viloyatida ham mahalliy sanoat ishlab chiqarishi yil sayin rivojlanib bordi. 1889-yilda viloyatda hammasi bo‘lib 61 ta sanoat korxonasi ishlab turgan. Shundan: 42 tasi Toshkentda, 5 tasi Toshkent uyezdida va Avliyootada, 1 tasi Perovskda, Amudaryo bo‘limida yesa 4 ta sanoat korxonasi ishlagan[43]. Korxonalarda faoliyat yurituvchi eng ko‘p ishchilar ham Toshkent shahriga tegishlidir–760 nafar. Qolgan uyezdlar: Chimkentda–70, Avliyootada–23, Perovskda–2, Kazalinskda–9 va Amudaryo bo‘limida–23 nafarni tashkil qilgan.

Sanoat korxonalaridagi og‘ir sharoit, ish haqining nihoyatda kamligi ishchilarni noroziligiga sabab bo‘lgan va ularni qo‘zg‘olonga chorlagan omillardan biridir. Arxiv hujjatlarida ta’kidlanishicha, 1916-yilda bosmaxona ishchilaridan biri Shayxontohurdagi masjidda odamlarni qo‘zg‘olon ko‘tarishga chaqirgan[44].

